



Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Namangan viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 aprel holatiga 2708,6 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-mart oylarida 9,0 ming kishiga yoki 0,3 %ga o'sgan. Jumiadan, shahar aholisi soni 1749,3 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 64,6 %), qishloq aholisi soni 959,3 ming kishini (35,4 %) tashkil etdi.


E'tibor bering:
2018 yil yanvar-mart

- Aholi soni **9,0 ming kishiga ko'paydi.**
- **Tirik tug'ilganlar soni 12,5 ming nafarni tashkil etdi.**
- **3,0 mingta vafot etganlar qayd etildi.**
- FHDYO bo'limlarida **3,2 mingta nikoh va 0,6 mingta ajralishlar ro'yxatga olindi.**

Namangan viloyati aholisining umumiy o'sishi (2018 yil yanvar-mart oylarida)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 aprel holatiga, Namangan jami aholisiga nisbatan, %da)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 aprel holatiga eng ko'p aholi soni Namangan shahrida 602,3 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 22,2 %ni) va Chust tumanida 255,9 ming kishini (9,4 %), aksincha eng kam aholi soni Mingbuloq tumanida 121,0 ming kishini (4,5 %) va Norin tumanida 157,9 ming kishi (5,8 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Namangan tumanida 2,1 %ga, To'raqo'rg'on tumanida 2,0 %ga, Kosonsoy, Uychi va Chortoq tumanlarida 1,9 %ga, Mingbuloq tumanida 1,8 %ga, Namangan shahar va Norin, Uchqo'rg'on tumanlarida 1,7 %ga, Pop, Chust va Yangiqo'rg'on tumanlarida 1,6 %ni tashkil etdi.



Demografik holat

Tug'ilish. 2018 yilning yanvar-mart oylarida 12,5 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 18,7 promilleni tashkil etdi.

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Namangan shahrida (20,2 promilledan 21,7 promillega) va Chortoq tumanida (16,0 promilledan 16,7 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha kamayish esa Yangiqo'rg'on (17,7 promilledan 16,9 promillega) va Kosonsoy (19,0 promilledan 18,4 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Hududlar kesimida tug'ilish (kishi)

	2017 yil yanvar-mart		2018 yil yanvar-mart	
	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille
Namangan viloyati	12278	18,7	12483	18,7
Namangan sh.	2948	20,2	3219	21,7
<i>tumanlar:</i>				
Mingbuloq	566	19,3	531	17,8
Kosonsoy	918	19,0	906	18,4
Namangan	741	17,9	778	18,4
Norin	671	17,6	668	17,2
Pop	955	18,6	894	17,1
To'raqo'rg'on	1044	19,9	1037	19,4
Uychi	960	19,5	952	19,0
Uchqo'rg'on	713	17,8	683	16,7
Chortoq	740	16,0	785	16,7
Chust	1124	18,1	1157	18,4
Yangiqo'rg'on	898	17,7	873	16,9

Demografik holat

Vafot etganlar. 2018 yilning yanvar-mart oylarida 3,0 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-mart oylarida 5,0 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Namangan tumanida (4,0 promilledan 4,3 promillega) o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Chust (4,9 promilledan 4,1 promillega), Mingbuloq (4,7 promilledan 4,0 promillega), To'raqo'rg'on (5,4 promilledan 4,7 promillega), Norin (5,3 promilledan 4,7 promillega), Uchqo'rg'on (5,4 promilledan 4,9 promillega), tumanlarida va Namangan shahrida (5,3 promilledan 4,9 promillega) kuzatildi.

Hududlar kesimida vafot etganlar (kishi)


	2017 yil yanvar-mart		2018 yil yanvar-mart	
	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille	kishi	1000 aholiga nisbatan, promille
Namangan viloyati	3250	5,0	2973	4,5
Namangan sh.	775	5,3	721	4,9
<i>tumanlar:</i>				
Mingbuloq	137	4,7	118	4,0
Kosonsoy	194	4,0	190	3,9
Namangan	167	4,0	182	4,3
Norin	202	5,3	184	4,7
Pop	242	4,7	193	3,7
To'raqo'rg'on	282	5,4	251	4,7
Uychi	271	5,5	265	5,3
Uchqo'rg'on	218	5,4	201	4,9
Chortoq	210	4,5	183	3,9
Chust	302	4,9	256	4,1
Yangiqo'rg'on	250	4,9	229	4,4

Demografik holat

2018 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,5 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,3 %i o'simtalardan, 5,2 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 5,8 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 6,7 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,3 %i yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 12,1 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 151 nafarni tashkil etib, ularning 33,8 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 32,4 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 18,5 %i tug'ma anomaliyalardan, 5,3 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,0 %i yuqumli va parazitlar kasalliklardan va 1,3 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2018 yil yanvar-mart

Tabiiy o'sish. 2018 yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 9,0 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 0,2 ming kishiga (2017 yilning yanvar-mart oylarida 8,8 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:
9,0 ming kishi

Demografik holat

Nikoh va nikohdan ajralishlar. 2018 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 3,2 ming nikoh va 0,6 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 4,9 va 0,9 promilleni tashkil etdi.



Hududlar keslmida nikohlar va ajrimlar soni (kishi)

	Tuzilgan nikohlar		Nikohdan ajralishlar	
	2017 yil yanvar-mart	2018 yil yanvar-mart	2017 yil yanvar-mart	2018 yil yanvar-mart
Namangan viloyati	3197	3253	540	574
Namangan sh.	470	483	131	126
<i>tumanlar:</i>				
Mingbuloq	167	192	16	27
Kosonsoy	218	202	33	63
Namangan	123	112	30	35
Norin	201	190	48	46
Pop	342	371	45	53
To'raqo'rg'on	211	267	41	37
Uychi	253	263	45	39
Uchqo'rg'on	201	187	31	33
Chortoq	239	268	35	46
Chust	436	446	48	33
Yangiqo'rg'on	336	272	37	36

Demografik holat

Migratsiya. 2018 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 1,2 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 1,7 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 0,5 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 0,3 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-mart	2018 yil yanvar-mart
Ko'chib kelganlar	1,1	1,2
Ko'chib ketganlar	1,4	1,7
Migratsiya saldosi	- 0,3	- 0,5

Migratsiya saldosinging yuqori darajasi Namangan shahar (minus 0,4 ming kishi), aksariyat Namangan tumani (plyus 0,1 ming kishi) qayd etildi.